JIZZAX VILOYATI PAXTAKOR TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 26-mart | 77-3-52-Q/25 | Paxtakor tuman hokimligi

2025-yilgi tasdiqlangan Paxtakor tumani mahalliy budjetiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 7-fevraldagi 01-20-228/08-01-32/30-sonli xatini hamda O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 28 va 148-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 7-fevraldagi 01-20-228/08-01-32/30-sonli, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Shodmonovning 2025-yil 11-fevraldagi 02-19-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi “Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-299-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy moddiy yordam paketi”ni to‘lab berish maqsadida 2025-yil uchun tasdiqlangan tuman mahalliy budjetiga ilovaga muvofiq tegishli o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.G‘aniyev)ga mahalliy budjetning xarajatlar qismiga kiritilayotgan o‘zgartirishlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Shodmonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Ashurov**

Paxtakor tumani hokimining
2025-yil 26-martdagi
77-3-52-Q/25-son qaroriga
1-ilova

“Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-299-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida budjet mablag‘lari taqsimlovchilar xarajatlar miqdorlariga kiritilayotgan o‘zgartirishlar miqdori

Budjet mablag‘i taqsimlovchi nomi	Bo‘lim	Kichik bo‘lim	Bob	Xarajatlar			O‘zgartirish summasi-jami				Shu jumladan, choraklar bo‘yicha			
				Toifa	Modda va kichik modda	element	Ko‘paygan		Kamaygan		(Ko‘paygan +; Kamaygan -)			
							%	Summa	%	Summa	2-chorak	Shu jumladan		
												aprel	may	iyun
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	12			
Hokimiyat	7109	300	018	48	21	190		6116		0	6116		6116	
Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	7092	100	072	42	99	990		0		6116	-6116		-6116	
Hammasi							**0**	**6116**	**0**	**6116**	**-6116**	**0**	**-6116**	**0**